

Tadbirkor

O'shanda Saidjon maktabni bitirish arafasida edi. Bir kuni sinf rahbari kim qanday kasbni egallashi haqida o'quvchilardan so'ray boshladi. Sinfdolarining biri advokat, biri shifokor, yana biri o'qituvchi, deya o'zlari kelgusida egallamoqchi bo'lgan kasblarini ayta boshladi. Navbat Saidjonga kelganida, u oddiygina qilib, dehqon bo'lmoqchiman, dedi. Sinfdagi gur etib kulgi ko'tarildi. Chunki orzular qanotida uchib yurgan bolalarning hech biri torm yopuvchi usta, yer bilan tillashadigan dehqon, chorvador bo'lishni xayollariga ham keltirmagandi.

Saidjon bolaligidan otasining ishlariga qarashib yurib, tadbirkorlikka qiziqib, dehqonchilik sirlarini bilib oldi. U qishloq xo'jaligi oliygohini tugatdi, otasining ishini davom ettira boshladi. Xorijiy yurtlarda malaka» oshirishda bo'ldi. Saidjon zamonaviy fermer ham bilimdon, ham usta dehqon bo'lishi zarurligini angladi. Hamma kasbning ham zamirida mehnat yotadi, ko'pchilikka foydasi tekkan kasb o'z egasini ulug'laydi, derdi otasi. El-yurtga nafing tegayaptimi, shu sening iqboling, deya aytgan o'gitini har qadamda his etib turadi. Dala aylanib yurgan Saidjon oppoq qor qoplagan dalalarga bir zum termilib qoldi. Yer namdan ko'pchib turibdi. U mo'l hosil berishga kuch yig'ayotgandek tin olmoqda. Saidjon hayot yo'lida tanlagan kasbidan g'ururlanganicha dalalarni uzoq aylandi.

Sohibaxon O'saraliyeva,
Andijon viloyati, Buloqboshi tumanidagi
2-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi